

# Siz — Buxoro markazidasiz

TOP-14

Nimalar qilish mumkin?

- Shaharning ikki asosiy ramzi — Ark qo'rg'oni va Poyi-Kalon me'moriy majmuasini ko'rish
- Shuxov minorasiga ko'tarilish
- Ulug'bek madrasalaridan biri, betakror Abdulazizxon madrasasi va g'aroyib Chor-Minor madrasasini ko'zdan kechirish
- So'nggi Buxoro amirining yozgi qarorgohi — Sitorai Mohi Xossa saroyining nafis bezaklaridan bahramand bo'lish
- Buxoroning mashhur savdo gumbazlari ostida sayr qilish — Labi Hovuzdan Mir Arab madrasasigacha
- Devonbegi xonaqohi ayvonidagi koshinli bezaklardan hayratlanish
- Labi Hovuz bo'yidagi choyxonalardan birida hovuz yoqasida hordiq chiqarish
- Sobiq Savva Morozov do'koni binosidagi Tasviriy san'at muzeyida Buxoro manzaralari tasvirlangan kartinalarni tomosha qilish
- Butik-mehmonxonalardan birida tunash
- Shaharning tarixiy qismidagi tor ko'chalar muhitini his qilish
- Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyida badavlat buxoroliklar qanday yashaganini ko'rish
- Qadimiy Buxoro hammomlarida massaj qabul qilish va dorivor choylardan ichish
- Labi Hovuz maydonidagi Xo'ja Nasriddin haykali bilan suratga tushish
- Nodir Devonbegi madrasasida raqslar va kiyimlar namoyishini o'z ichiga olgan folklor shousini tomosha qilish
- Iskandar Hakimov ustaxonasida papye-mashe uslubida milliy qo'g'irchoqlar tayyorlash sirlarini bilish
- Mahalliy ustalardan birinikida mehmon bo'lib, pichoq yoki buxoro gilamlarini tayyorlash, an'anaviy liboslar tikilishi, vinochilik, xattotlik yoki miniatyura san'ati sir-asrorlarini o'rganish
- Bozor aylanish
- «Shohrud» sharob zavodiga ekskursiya va degustatsiyaga borish
- Buxorodan 40 km uzoqlikdagi G'ijduvon kulolchilik markaziga borish, shuningdek, g'ijduvoncha kabob mazasini kashf qilish
- Tudako'l ko'lida dam olish va mahalliy baliqdan tatib ko'rish



CENTRUMAIR

CENTRUM  
HOLIDAYS